**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the methodology and practice of assessing primary school students' academic achievements. Assessment at the primary level serves not only to measure students' knowledge but also to monitor their developmental progress. The paper discusses diagnostic, formative, and summative assessment approaches and highlights the teacher's central role in the evaluation process. Modern assessment tools–such as rating systems, portfolios, observation, and testing–are examined for their effectiveness in classroom practice. Emphasis is placed on the importance of considering individual learner characteristics, enhancing student motivation, and improving overall educational quality. Based on the research findings, practical recommendations are proposed for refining the assessment process in primary education. This article is intended for educators, methodologists, and professionals seeking to enhance assessment strategies in early schooling.

**Key words:** TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, competence, curriculum, assessment content.

**Аннотация:** В статье подробно рассматриваются методика и практика оценки учебных достижений учеников начальных классов. Оценка в начальной школе играет важную роль не только в определении уровня знаний учащихся, но и в отслеживании их индивидуального развития. Освещаются диагностическая, формативная и суммативная формы оценки, а также роль учителя как основного субъекта оценивания. Анализируются современные методы – рейтинговая система, портфолио, наблюдение и тестирование, их эффективность в образовательной практике. Подчеркивается важность учета индивидуальных особенностей учащихся, повышения их мотивации и общего улучшения качества образования. На основе исследования представлены практические рекомендации для совершенствования оценочной деятельности в начальном образовании. Статья будет полезна учителям, методистам и специалистам в области начального образования.

**Ключевые слова:** TIMSS, PISA, PIRLS, TALIS, компетентность, учебная программа, содержание оценки.

## KIRISH

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning natijalarini baholash metodikasi va amaliyotining nazariy asoslarini o'rganish bugungi ta'lim jarayonida baholashning mazmun-mohiyati, vazifalari hamda zamonaviy yondashuvlar asosida shakllanayotgan baholash tizimining rolini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, baholash faqatgina o'quvchi bilimini aniqlovchi vosita emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini, o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiruvchi, rivojlantiruvchi omil sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, formatif va summativ baholash turlarining o'ziga xos jihatlari, ularning o'quvchilarning individual rivojlanishiga ta'siri nazariy jihatdan asoslab berildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Baholash metodikasining nazariy asoslarini ishlab chiqishda pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlariga tayanish, yosh davri xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim konsepsiyalariga mos keladigan mezonlar va uslublarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda "Ona tili" fanida baholash metodikasini nazariy asoslash orqali o'quvchilarning tilni o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularni nazorat qilish va rivojlantirishda qo'llaniladigan vositalarning samaradorligi tahlil qilindi.

Umuman olganda, baholashning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish va uni amaliyotga tadbiq etish orqali boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkoni yaratiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning natijalarini baholashning konseptual asoslarini o'rganish zamonaviy ta'lim jarayonida baholashga bo'lgan yondashuvlarni yangicha tushunishga imkon beradi. An'anaviy baholash tizimlaridan farqli o'laroq, bugungi konseptual yondashuvlar baholashni o'qitish va o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi, o'quvchi shaxsini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida talqin qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida baholashning asosiy konseptual yo'nalishlari – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, rivojlantiruvchi baholash va jarayonli (formatif) baholash asoslari aniqlab olindi. Ushbu yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchisining yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual rivojlanish sur'atlarini inobatga olgan holda, baholash tizimini moslashtirish zarurligini ko'rsatdi. Baholashning konseptual asoslarini ishlab chiqishda quyidagi jihatlar muhim o'rin tutadi:

- o'quvchining o'z-o'zini baholashi va refleksiyasi;
- o'quv faoliyati davomida muntazam aloqa va teskari aloqaning mavjudligi;
- baholash mezonlarining aniq, tushunarli va shaffofligi;
- baholash natijalaridan o'sish nuqtalarini aniqlash uchun foydalanish.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar natijalarini baholashning konseptual asoslari – bu faqatgina bilimni o'lchash emas, balki o'quvchini fikrlashga, ijodkorlikka, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltiruvchi pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi.

Bunday yondashuv, o'z navbatida, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, boshlang'ich sinflarda baholashning konseptual asoslari quyidagi ustun yo'nalishlarga tayanib shakllanadi:

- **Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari** – har bir o'quvchining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va o'zlashtirish sur'atlarini hisobga olgan holda baholashni tashkil etish;
- **Kompetensiyaviy yondashuv** – baholashda faqat faktik bilim emas, balki o'quvchining bilimni amaliyotda qo'llay olish, muloqotga kirishish, muammo yechish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi universal kompetensiyalarini aniqlash;
- **Formatif (jarayonli) va summativ (yakuniy) baholash uyg'unligi** – o'quv jarayonining har bir bosqichida o'quvchining o'sishini kuzatish, unga teskari aloqa berish, yakuniy natijalarni esa rivojlanish dinamikasini inobatga olgan holda baholash;
- **Reflektiv yondashuv** – o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishga, baholash mezonlarini tushunishga va o'zini baholay olishga o'rgatish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Konseptual asoslarning zamirida baholash tizimining ijtimoiy-psixologik funksiyalari – motivatsiya berish, o'z-o'zini anglashni kuchaytirish, mas'uliyatni shakllantirish, o'qituvchi-o'quvchi o'rtasida sog'lom pedagogik muloqotni ta'minlash kabi omillar yotadi. Ayniqsa, boshlang'ich bosqichda bu kabi yondashuvlar o'quvchilarning ta'limga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, baholashning konseptual asoslarini to'g'ri belgilash boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini aniq kuzatish, ularni rag'batlantirish va individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida sifatli, samarali va insonparvar ta'limga asos bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda baholashning asosiy maqsadi – o'quvchilarning o'quv faoliyatini tahlil qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, rivojlanishiga ko'maklashishdir.

Konseptual jihatdan, baholash quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatish;
- o'qituvchi faoliyatini tahlil qilishga asos yaratish;
- ta'lim strategiyasini takomillashtirish.

Konseptual yondashuvlarda quyidagi tamoyillar muhim:
- ob'yektivlik – baholash mezonlari aniq, o'zaro solishtiriladigan bo'lishi lozim;
- adolatlilik – har bir o'quvchi imkoniyatlarini hisobga olish;
- motivatsion yondashuv – baholash rag'batlantiruvchi va rivojlantiruvchi bo'lishi kerak;
- tizimlilik – baholash jarayoni uzviy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Konseptual asoslar baholash vositalarini ham belgilaydi:
- testlar (ochiq va yopiq turdagi);
- diagnostik topshiriqlar;
- kuzatuv jurnallari;
- reyting kartalari; portfeliolar (o'quvchi ishlari to'plami);
- interaktiv metodlar orqali baholash (rolli o'yinlar, muammoli topshiriqlar, bahslar).

Baholash o'quvchi yoshiga, psixologik holatiga, rivojlanish darajasiga mos bo'lishi zarur. Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar hissiy ta'sirlarga sezgir bo'lganliklari sababli, baholash ularda qo'rquv emas, ishonch va qiziqish uyg'otishi lozim. Shu sababli, rag'batlantiruvchi (pozitiv) baholash usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Baholashning turlari:
- formatib baholash – o'qish jarayonida o'quvchining holatini doimiy kuzatish;
- summativ baholash – ma'lum davr oxirida yakuniy baholash;
- diagnostik baholash – o'quv jarayonining boshlanishida o'quvchi darajasini aniqlash;
- o'zaro va o'z-o'zini baholash – o'quvchining mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda an'anaviy usullardan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, baholash topshiriqlari tarkibiga video lavhalar, animatsiyalar, interaktiv grafikalarni kiritish o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, tushunishni osonlashtirish va chuqur tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Baholashda qo'llanilayotgan topshiriqlar o'quvchining nafaqat xotirasini, balki uning ko'ruv, eshituv, analiz va sintez qilish kabi kognitiv jarayonlarini faollashtirishi lozim. Bunday topshiriqlarda quyidagi texnik vositalar ishlatilishi mumkin: raqamli test platformalari (Quizizz, Kahoot, Wordwall va b.); interaktiv taqdimotlar (PowerPoint, Prezi, Genially); multimedia vositalari (videoslaydlar, animatsion fragmentlar, subtitrli videolar). Shuningdek, bunday topshiriqlar o'quvchining axborot bilan ishlash madaniyatini, texnologik savodxonligini ham shakllantiradi. Bu esa nafaqat baholash sifatini oshiradi, balki zamonaviy o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda baholash topshiriqlarini multimedia vositalari bilan boyitish – bu faqat texnik yangilik emas, balki pedagogik yondashuvning yangi bosqichi bo'lib, o'quvchilarning natijalarini yanada aniq, adolatli va chuqur baholash imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash jarayonini interaktiv va vizual uslublar bilan boyitish dolzarb pedagogik yo'nalishlardan biridir. Boshlang'ich sinflarda baholash topshiriqlariga ilmiy-tabiiy hodisalar, tarixiy voqealar va real hayotiy holatlarni animatsiyalar, videolar hamda rangli grafikalar orqali kiritish, nafaqat ta'limiy mazmunni jonlantiradi, balki o'quvchilarning tushunish darajasini chuqurlashtiradi, fikrlashni faollashtiradi va mustahkam o'zlashtirishga olib keladi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar berilgan topshiriqlarni ko'proq qiziqish va motivatsiya bilan bajaradilar, voqealarning sabab-oqibat aloqalarini tushunadilar, ko'rgazmali misollar orqali mavzuni real kontekstda anglaydilar, o'z fikrini asosli bayon qilish, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, multimedia vositalaridan foydalanilgan holda tashkil etilgan baholash topshiriqlari o'quvchilarda axborot savodxonligi, mantiqiy fikrlash va texnologiyadan maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantiradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchisini nafaqat bilimli, balki o'z fikriga ega, zamon bilan hamnafas fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Ta'lim tizimida innovatsiya deyilganda ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabani hamkorlikda faoliyatini tashkil etish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl va vositalarining majmuasi tushuniladi. Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan

dars jarayonida foydalanishning oʻziga xosligi shundaki, ular oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi.

"Innovatsiya" soʻzi "yangilik" lotin tilida XVII asr oʻrtalarida paydo boʻldi va maʼlum bir soha doirasida yangi sohaga oid oʻzgarishlarning yuzaga kelishini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, innovatsiya bir tomondan, innovatsiyani amalga oshirish jarayoni emas, balki uni muayyan ijtimoiy amaliyotga aylantirish faoliyatidir. Innovatsion faoliyat oʻzining toʻliq rivojlanishida oʻzaro bogʻliq boʻlgan ish turlarini oʻz ichiga oladi, ularning umumiyligi real innovatsiyalarning yuzaga kelishini taʼminlaydi.

Bugungi kunda "innovatsion taʼlim" bu oʻz-oʻzini rivojlantirishga qodir boʻlgan va uning barcha ishtirokchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan taʼlimdir. Innovatsion taʼlim – bu rivojlanayotgan taʼlimdir.

Talabalarga yetkaziladigan zamonaviy tarkib zamonaviy bilim amaliyotiga mos keladigan kompetensiyalarni rivojlantirish kabi fan bilimlarini rivojlantirishni oʻz ichiga olmaydi. Ushbu tarkib yaxshi tuzilgan va zamonaviy aloqa vositalari yordamida uzatiladigan multimedia oʻquv materiallari shaklida taqdim etilishi kerak. Oʻqitishning zamonaviy usullari bu nafaqat materialni passiv idrok etish asosida, balki oʻquvchilarning oʻzaro munosabatlari va ularning oʻquv jarayoniga jalb qilinishiga asoslangan vakolatlarni shakllantirishning faol usullari.

Masofaviy taʼlimning afzalliklaridan samarali foydalanishga imkon beruvchi axborot, texnologik, tashkiliy va aloqa komponentlarini oʻz ichiga olgan zamonaviy oʻquv infratuzilmasi mavjud. Hozirgi kunda maktab taʼlimi tizimida turli xil pedagogik yangiliklardan foydalanilmoqda. Maktabni axborotlashtirish jarayonida paydo boʻlgan tendensiyadan xabardor boʻlish juda muhimdir: oʻquvchilar tomonidan informatika haqidagi boshlangʻich maʼlumotni ishlab chiqishdan umumiy fanlarni oʻrganishda kompyuter dasturidan foydalanishgacha, soʻngra taʼlimning tarkibi va mazmunini informatika elementlari bilan toʻyintirish, maʼlumotlardan foydalanishga asoslangan butun oʻquv jarayonini tubdan qayta qurish. Natijada maktabning metodik tizimida yangi axborot texnologiyalari paydo boʻladi va maktab bitiruvchilari kelgusi ishlarida yangi axborot texnologiyalarini oʻzlashtirishga tayyorlanadilar. Ushbu yoʻnalish informatika va AKTni oʻrganishga yoʻnaltirilgan yangi fanlarni oʻquv dasturiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Qoʻllash tajribasi shuni koʻrsatdiki:

a) ochiq maktabda maʼlumot muhiti, shu jumladan masofaviy taʼlimning turli shakllari oʻquvchilarning fan fanlarini oʻqishga, ayniqsa loyiha uslubidan foydalanishga boʻlgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi;
b) taʼlimni axborotlashtirish oʻquvchini oʻziga jalb qiladi, bunda maktab munosabatlaridagi psixologik stress subyektiv oʻqituvchi-talaba munosabatlaridan eng obʼektiv talaba-kompyuter-oʻqituvchi munosabatlariga oʻtish yoʻli bilan olib tashlanadi, talaba ishining samaradorligi oshadi, ijodiy ishlarning ulushi ortadi, imkoniyat kengayadi, maktab devorlaridagi ushbu fan boʻyicha qoʻshimcha maʼlumot olish imkoniyati yaratiladi;
d) oʻqitishni axborotlashtirish oʻqituvchini oʻziga jalb qiladi, chunki bu uning ish unumdorligini oshirishga imkon beradi, oʻqituvchining umumiy axborot madaniyatini oshiradi. Birinchidan, bu maʼlum bir yosh oraligʻida rivojlanayotgan oʻquv jarayonining psixologik-pedagogik dizayni, shaxsning oʻz hayoti va faoliyatining haqiqiy subʼekti boʻlishiga sharoit yaratishi: xususan, oʻrganish-faoliyatning umumiy usullarini mohirligi sifatida; shakllantirish-madaniyatning mukammal shakllarini rivojlantirish sifatida;

Anʼanaviy taʼlimdan inson taraqqiyotining umumiy printsipini amalga oshiradigan innovatsion taʼlimga oʻtishni taʼminlash uchun bu yerda dizayn va tadqiqotning alohida vazifasi paydo boʻladi. Shu tarzda, rivojlanish psixologiyasida yosh meʼyorlarini va ontogenezning turli bosqichlarida rivojlanish mezonlarini maxsus loyihalash zarur. Rivojlanish pedagogikasida bu yosh standartlariga mos keladigan, taʼlim texnologiyalari tiliga tarjima qilingan, yaʼni WHAT (NIMA) orqali amalga oshiriladigan oʻquv dasturlarini ishlab chiqishdan iborat. Taʼlim amaliyotida bu bolalar va kattalar jamoalarining madaniy va faoliyati ishonchliligi nuqtai nazaridan, yaʼni rivojlanish mumkin boʻlgan shunday taʼlim makonini loyihalashtirishdir. Boshqacha qilib aytganda, taʼlimni rivojlantirish va rivojlantirish tizimini loyihalash, agar u bir vaqtning oʻzida amalga oshirilsa: shaxs rivojlanishining yoshga oid normativ modellarini psixologik oʻrganish, ushbu modellarni amalga oshirish uchun oʻquv dasturlari va texnologiyalarini pedagogik dizayni, oʻquv jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtirish, yangi taʼlim maqsadlari va muammolarini hal qilish vositalarini loyihalashdir.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika sohalarining juda tez surʼatlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha taʼlim muassasalarida taʼlim-tarbiya masalalariga yangicha yondashishni talab qilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, oʻqituvchilar zimmasiga yanada yuksak vazifalar va masʼuliyatni yuklaydi. Bu borada taʼkidlashimiz mumkinki, bizning mamlakatimizda yangi taʼlim tizimi modernizatsiya qilinib, jahon miqyosidagi taʼlim makoniga kirish arafasida. Bu taʼlim-tarbiya jarayonidagi sezilarli oʻzgarishlar bilan bogʻliqdir. Buning sababi shundaki, taʼlim paradigmasi oʻzgargan, taʼlim mazmuni ham yangilangan, yangi yondashuvlar va yangi gʻoyalar paydo boʻlgan. Kelajak avlodni jamiyat talablariga mos ravishda tarbiyalash va oʻqitishda oʻqituvchilarning pedagogik faoliyatining ilmiy-amaliy asoslarini oʻzlashtirishi muhim masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Raqamli manbalar oqimi kuchaygan davrda inson qobiliyati, isteʼdodi, atrof-muhitdagi yaxshi munosabatlarni rivojlantirish, shaxsga

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

yo'naltirilgan yondashuv orqali o'qitish ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'limning zamonaviy talabi – ijodkor, zamonaviy bilimga ega raqobatbardosh va malakali insonni tarbiyalashdan iborat.

Bu yerda quyidagi savollar paydo bo'ladi: ta'lim jarayonida o'quvchilar orasida o'zaro bir-birini tushunish va jamoaviy munosabatlarni o'rnatib, o'quvchilarda paydo bo'ladigan xavotirlarning oldini olish va bartaraf etish, imkoniyatlarni kengaytiradigan omillar nimalardan iborat? Baholash tizimi o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir qiladimi? Ushbu savollarga bugungi kunning javobi – mezonli baholash bo'lib hisoblanadi.

Mezonli baholash – bu ta'limning maqsadi va mazmuniga mos keladigan, o'quvchilarning o'quv-bilish malakalarini, o'quv ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shadigan, aniq belgilangan, jamoa bilan ishlab chiqilgan, ta'lim jarayoni ishtirokchilariga oldindan ma'lum bo'lgan muayyan mezonlar bilan bilim oluvchilarning o'quv yutuqlarini taqqoslashga asoslangan jarayon. Mavjud baholash tizimining kamchiliklari:

- o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar uchun tushunarli bo'lgan rejalashtirilgan ta'lim natijasiga erishish uchun baholashning aniq mezonlari mavjud emas;
- o'qituvchi har bir o'quvchining yagona mezonlarga erishishiga emas, balki butun sinfning o'rtacha bilim darajasiga e'tibor qaratib, belgi qo'yadi;
- mavjud baholash tizimi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini emas, balki bilimlarni o'zlashtirish natijasini aks ettiradi;
- bilim oluvchilarga berilgan baholar o'quv dasturining alohida bo'limlari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarning aniq elementlarini o'zlashtirish haqida tasavvur bermaydi, bu esa har bir o'quvchi uchun individual ta'lim traektoriyasini aniqlashga imkon bermaydi;
- ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida operativ aloqa mavjud emas, bu esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan yuqori motivatsiyasiga yordam bera olmaydi.

An'anaviy baholash tizimi o'quvchining darsga tayyorgarligini muntazam tekshirish va baho qo'yish bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, barcha o'quvchilar bilimini baholash bitta o'qituvchining shaxsiy munosabati va bilimiga asoslanib amalga oshiriladi, baholash jarayoni to'liq inson omiliga bog'liq, zamonaviy talablariga mos keladigan individual yondashuv va aniq baholash mezonlari mavjud emas. An'anaviy eski baholash tizimida obyektivlik eng katta muammolardan biri bo'lib kelgan. Bunga sabab, tizimning deyarli 90 foizi inson omiliga asoslangan edi. Ya'ni, o'quvchi bilimiga beriladigan baho birgina o'qituvchining munosabatidan kelib chiqib belgilanardi.

## XULOSA

Mezonli baholash tizimida esa inson omilini imkon darajada minimallashtirish ko'zda tutilgan. Mezonli baholash vazifalari quyidagilardan iborat:

- darsning har bir qismida har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- o'quvchining rivojlanish yutug'ini nazorat qilish;
- o'quvchining o'quv jarayonidagi xato va kamchiliklarini aniqlash va tuzatishga imkon berish;
- turli ishlar davomida olingan bahoning adolatliligini ta'minlash;
- ta'lim dasturining samaradorligini tahlil qilish;
- o'quv jarayoni va bilimlarni o'zlashtirish to'g'risida o'quvchi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida qayta bog'lanishni ta'minlash.

Amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: faqat o'quvchilarning bajargan ishi baholanadi; bajarilgan ish oldindan belgilangan namuna (standart) bilan taqqoslanadi; o'quvchi o'z ishini baholashga imkon beradigan va ota-onalarga ma'lumot bera oladigan aniq baholash algoritmini biladi; mezonli baholash muayyan ta'limiy maqsad bo'yicha amalga oshiriladi. Shuningdek, mezonli baholash texnologiyasi o'quvchilarda ortiqcha xavotirlanishni yo'qotadi va o'qituvchini "hakam" rolidan xalos qiladi. Bu esa o'quvchilarda o'z-o'zini baholash, o'z faoliyatiga baho berish va javobgarlikni rivojlantirishga yordam beradi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, o'quvchi muvaffaqiyatini baholashning obyektivligini oshiradi. Mezonli baholash tizimi avvalgi baholashdan formatif va summativ baholash tizimining joriy etilishi bilan farq qiladi. Formatif baholash o'qitishni, usullarni va ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish yo'llarini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, jamlovchi baholash maqsadli baho qo'yish va sertifikatlash yoki o'qitishning oldinga siljishini qayd etishda o'quv natijalarini chiqarish uchun zarurdir.

Mezonli baholash asosida 4K usuli – ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va kooperatsiya (hamkorlik) yotadi. Tizim quyidagi tamoyillarga asoslangan:

a) Reproduktiv daraja. Reproduktiv darajadagi topshiriqlar mazmuni o'quvchilarning o'quv materialini qayta ishlamagan holda esda saqlab qolish qobiliyatini aniqlab beruvchi qonunlar, xossalar, formulalar, tushunchalar va atamalarning mohiyatini o'rganish, eslab qolish va idrok etishga mo'ljallangan.

b) Produktiv daraja. Topshiriqlar mazmuni mavzuni oʻzlashtirishda fanning qonun va qonuniyatlari, xossalari va formulalarini qoʻllash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash va qara-ma-qarshi qoʻyish, bir qancha qonun va qonuniyatlardan foydalanishni oʻz ichiga oladi. Shu bilan birga, umumlashtirish va xulosa qilish talab etiladi.

d) Mulohaza yuritish. Intellektual darajadagi topshiriqlarning mazmuni oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qoʻllashni, qonun va qonuniyatlardan foydalangan holda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirishni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4097073
2. Safarova R., Musayev U., Musayev P., Yusupova F., Nurjanova R. Oʻzbekiston Respublikasida umumiy oʻrta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yoʻllari. – T.: "Fan", 2015. – 85-86-bet.
3. Ernazarova M., Bobomurodova A. Boshlangʻich sinflarda ona tili darslarini tashkil etish metodlari va shakllari. Navoiy, 2007.
4. Yoʻldoshev J.Gʻ., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: "Fan texnologiya", 2008.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №5**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.